



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026



6-SHO'BA

ZAMONAVIY GUMANITAR TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

O'ZBEK OILASIDA TARBIYAGA OID MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR

tarix f.b.f.d., dotsent Aqchayev Farrux Shavkatovich - Jizzax davlat
pedagogika universiteti akchayev1984@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi o'zbek oilasida milliy va diniy qadriyatlarining shakllanishi va tarbiyada tutgan o'rni tahlil qilingan bo'lib, oilaning jamiyatdagi asosiy tarbiyaviy institut sifatidagi ahamiyati, farzand tarbiyasida bobo-buvilarning roli shuningdek, globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarining o'zgarishi, biroq asosiy ma'naviy negizlarning saqlanib qolayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. oila, milliy hamda diniy qadriyatlar, tarbiya, an'analar, ma'naviyat, globallashuv.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida oila instituti milliy va diniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Ayniqsa, oilada shakllanadigan tarbiya tizimi bolalarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, milliy o'zlikni anglashi va diniy qadriyatlarga munosabatini belgilab beradi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar hamda diniy me'yorlar o'zaro uyg'un holda namoyon bo'lishini aksariyat holatlarda oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy uslublar hamda kundalik turmush tarzida ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o'zbek oilalarida milliy va diniy tarbiya xususiyatlarining aks etishini ilmiy jihatdan tahlil qilish jamiyat ma'naviy taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha davrlarda ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, millatga xos barcha qadriyat, urf-odat va an'analarni saqlovchi va rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy maskan hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar negizida jamiyat uchun muhim bo'lgan g'oyalar, qarashlar va millatning o'zligini anglashga xizmat qiluvchi fikrlar shakllanadi. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati ijtimoiy munosabatlar tizimi hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Shu jarayonda oilaning bajaradigan vazifalari va amalga oshiradigan ijtimoiy funksiyalari mexanizmi ham shakllanadi.

Har bir millatning o'ziga xos madaniy xususiyatlari va jamoaviy qoidalarining jamiyat hayotidagi o'rniga ko'ra oila instituti ham muayyan o'ziga xoslik kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek jamiyatida oila va oilaviy munosabatlar jamiyatning axloqiy-tarbiyaviy talablari asosida shakllangan bo'lib, oilani yuritish tartibi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar hamda milliy tarbiya xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbeklarda oilaviy munosabatlar deganda faqat er-xotin va ularning farzandlari manfaatlari nazarda tutilmaydi. Balki, har bir insonning barcha ijtimoiy munosabat va faoliyatlarida mas'uliyatli bo'lishi, huquqlarini amalga oshirish bilan bir qatorda majburiyatlarini ham sidqidildan bajarishi oila mustahkamligi va jamiyat ravnaqining

asosi sifatida e'tirof etiladi. O'zbekona an'analarga ko'ra yoshi katta insonlarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, qarindoshlarga nisbatan mehribonlik kabi fazilatlar inson kamolotiga xizmat qiladi. Komil shaxs esa oila munosabatlarida odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldini oladi va uning farovonligini ta'minlaydi[4].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimdan o'zbek oilasining asosiy vazifalaridan biri sog'lom va barkamol avlodni dunyoga keltirish hamda uni tarbiyalashdan iborat deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimizda farzand oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholangan bo'lsa, uning tarbiyasi oila sha'ni va nufuzini belgilovchi asosiy mezon sifatida e'tirof etilgan. Shu boisdan azaldan o'zbeklarda oila qurgach farzand ko'rish va uni munosib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bugungi kunga qadar ham o'zbek jamiyatida bola oilaning va sulolaning davomchisi, avlodlar izchilligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy omil sifatida qaraladi.

O'zbek oilalarida bola tarbiyasi bilan bog'liq qadriyatlarni kuzatar ekanmiz, yoshi katta kishilar nafaqat bolaning voyaga yetishidagi tarbiya usullarini hisobga oladi, balki tug'ilgan chaqaloqning kelajakda qanday inson bo'lib kamol topishini ham oldindan bilishga intilgan. Bola parvarishi va tarbiyasida katta avlodning mas'uliyati yuqori bo'lishi o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Bu chaqaloqning chilla davridanoq uni parvarishlash bilan boshlanadi. Tuqqan ona va chaqaloqning "chilla" saqlash udumlari voila hududlarida yaxshi saqlanib kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, xomilador ayol ko'zi yoriganidan so'ng yosh ona va yangi tug'ilgan chaqaloqni alohida parvarishlash maqsadida dunyoning ko'pgina xalqlarida muayyan vaqt mobaynida himoyalash va asrab-avaylash urf-odatlar mavjud bo'lgan. Binobarin, o'zbeklarda tuqqan ayol va uning chaqalog'ini qirq kun davomida parvarishlash va ehtiyotlashga qaratilgan "chilla" davri mavjud[1]. Bu qadriyat axborotchilarning ta'kidlashlaricha bolaning jismonan va ruhan sog'lom bo'lib voyaga yetishida muhim o'rin tutadi.

O'zbek oilalarida yosh bolalar bir yarim- ikki yoshgacha asosan beshikda parvarish qilinadi. Dala tadqiqotlari jarayonida jamiyatning ziyoli qatlami vakili bo'lgan serfarzand onaning ta'kidlashicha, uning farzandlari qariyb ikki yoshgacha beshikda yotgan va ularning tarbiyasi ko'proq qaynonasining zimmasida bo'lgan. Qaynonalar nevaralari oldida katta mas'uliyatga ega bo'lib, shuning uchun bolalar avvalo ularning qaramog'iga tegishli hisoblangan. Yosh onalar qaynona yoki qaynota oldida farzandlarini urushmasdan tarbiyalashgan va ularning tanbehlarini ham shubha bilan qabul qilmaganlar. Garchi bolani dunyoga keltirgan bo'lishlariga qaramay, yosh ota-onalar katta avlodning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va huquqini yuqori baholashgan va ularning bola oldidagi haq-qudratini tan olganlar.

O'zbek xalqida bolani parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab marosimiy odatlarlar endi unitilayotgan bo'lsada ammo, bola tarbiyasi bilan bog'liq qadriyatlarda ya'ni, ko'proq bolalarga mehnat tarbiyasini berish, ularni odob va axloqqa o'rgatishda hamda oila a'zolari o'rtasida katta va kichiklar o'rtasida muvozanat saqlanishida ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, Sharq xalqlarida nafaqat muomalada, balki, shu bilan birga insonning o'tirgan o'rni, unga berilgan taom tarkibi va boshqa shu kabi ko'p holatlarga qarab ham uning mavqei belgilanadi. Aksariyat oilalarda kattalar va bolalar bir joyda o'tirishmaydi. Ayniqsa, serfarzand oilalarda bunday holatni ko'p kuzatish mumkin bo'lib, bunda oilaviy shart-sharoit muhim o'rin tutishini aytish lozim.

Axborotchining ma'lumot berishicha, ular oilada 8 farzand bo'lgani uchun yoz paytida kattalar alohida, kichiklar alohida o'tirishgan. Lekin qish paytida mavjud taqchil sharoit tufayli, hamma bir joyda to'plangan[2].

Bolalarni kattalardan alohida ajratish aslida tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan. O'zbekona tarbiyada bolalar o'smirlik yoshigacha yetguncha o'g'il va qiz bolalarga yotoq uchun alohida xona ajratilmagan. Faqat o'smirlik paytidan o'g'il bolalar iloji boricha qizlardan ajratilgan. Azaldan o'zbeklar bola tarbiyasida oila a'zolarining o'rnini muhim sanagan va unga amal qilishgan. Zamonaviy o'zbek jamiyatida ham nasl-nasablar, qarashlar va tarbiya shakllarining qorishib borishi kuzatilsada, o'g'il bola va qiz bolani tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish hamda unga ma'suliyat bilan yondashish saqlanib qolgan. Ma'lumki, o'zbek (musulmon) oilalarida qizlarni xayoli-iboli, uyatchan, tortinchoq, itoatkor, yon bosuvchi, oila boshlig'i hisoblanmish erining talablariga bo'ysunuvchi ruhida tarbiyalaganlar, o'g'il bolalarda esa, kuchli, jasur, g'ayrat-shijoat, tadbirkorlik, hukmdorlik qobiliyatlari shakllantirilgan[5].

Jamiyatda erkak va ayolning vazifasi, statusi hamda amalga oshiradigan harakatlaridan kelib chiqqan holda o'zbeklar o'g'il bola va qiz bolaning tarbiyasiga alohida yondashishadi. Azal-azaldan o'zbeklar tarbiya va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga qattiq e'tibor qaratishgan. Aksariyat hollarda tarbiya uchun ota-ona javobgar shaxs sifatida tilga olinsada, o'zbeklar bu masalaga boshqacha yondashgan va ko'p hollarda bolani tarbiyasi yuqorida ta'kidlaganimizdek, bobo-buvilarning ishi, ermagi va e'tibor qaratishi kerak bo'lgan jihat sifatida talqin qilinadi[3]. Bu jarayonda bobo-buvilarning uzoq yillik hayotiy tajribasi hamda mashaqqatli hayot yo'li muhim ahamiyat kasb etishiga urg'u qaratishgan. Ushbu qarashlar tajribalar asosida o'zbeklarga xos milliy tarbiya shakli yuzaga kelgan deyish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yashayotgan o'zbeklarda ham jamoaviy qadriyatlar va milliy tarbiya hususiyatlarida ayrim qayta tartiblanishlar, integratsiya va modernizatsiya jarayonlari kuzatiladi. Shu bilan birga, globallashuv va texnologiyalarning ta'siri oila tarbiyasi usullariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda: bolalarning ma'lumotga bo'lgan e'tibori, ijtimoiy munosabatlar shakllari va har tomonlama rivojlanishdagi yo'nalishlari zamonaviy talablarga moslashmoqda. Ammo, bu o'zgarishlarga qaramay, o'zbek milliy tarbiyasining asosiy ildizlari — axloq, ma'naviyat, ota-onaga hurmat va oilaviy qadriyatlar — o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bola tarbiyasi hali ham shaxsning ma'naviy kamoli, oilaning ijtimoiy va ma'naviy barqarorligi hamda jamiyatdagi statusini belgilaydigan asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. 79 б
2. Дала тадқиқотлари. Ғаллаорол тумани Хонимқўрғон қишлоғи. 2021 й.
3. Дала тадқиқотлари. Жиззах ва Самарқанд вилоятлари. 2020-2022 йиллар.

4. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2016 йил. -168 б.

5. Шаамирова Ю.К. Нотўлиқ оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент: 2006.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ РУССКОЙ ТОПОНИМИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Велиева С.Р.

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Аннотация: Статья посвящена анализу русской топонимической системы на территории современного Узбекистана. Рассматриваются механизмы формирования названий, их адаптация в иноязычной среде и динамика функционирования в условиях активных процессов реноминации. Особое внимание уделяется взаимодействию внутриязыковых факторов и внешних социально-политических условий. В статье рассматривается функционирование русских топонимов на территории Республики Узбекистан. Анализируются лингвистические особенности адаптации русских географических названий в узбекском языковом пространстве, а также экстралингвистические факторы, влияющие на их сохранение, трансформацию или исчезновение. Особое внимание уделяется социокультурным и историческим причинам, определяющим современное состояние русской топонимии в регионе.

Ключевые слова: топонимика, русская топонимическая система, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, Узбекистан, реноминация.

Топонимия — это не только система географических названий, но и важный элемент культурного и исторического наследия народа. В многонациональных государствах, таких как Республика Узбекистан, топонимическая картина формируется под влиянием различных языков и культур. Русская топонимия занимает особое место в этом процессе, отражая как исторические связи, так и современные социолингвистические реалии. Топонимический ландшафт Центральной Азии представляет собой многослойный текст, в котором отражены этапы исторического развития, миграционные процессы и культурные контакты. Русская топонимия Узбекистана, сформировавшаяся преимущественно в XIX–XX веках, сегодня выступает как важный объект лингвистического исследования, позволяющий проследить судьбу «заимствованной» системы в условиях суверенного развития государства.

Формирование пласта русских названий в регионе было обусловлено рядом экстралингвистических факторов: Военно-административный фактор: появление крепостей и поселений (напр., *Николаевское*, *Александровское*). Экономический фактор: строительство железных дорог и освоение земель